

**“OLOV ICHIDA MUSTAHKAMLANGAN XONLIK: ABDULLAXON II VA
UNING JANG MAYDONIDAGI O‘RNI”**

Sodiqova Ruxshona Lutfullo qizi
Qarshi Davlat Universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotsiya: *Bu maqola o'rta asr Markaziy Osiyoning siyosiy xaritasini tubdan o'zgartirgan yirik harbiy arbob- Abdullaxon II faoliyatiga, xususan uning harbiy yurishlariga bag'ishlangan. XVI asrning ikkinchi yarmi-bu Buxoro xonligi uchun siyosiy beqarorlik va ichki kurashlar davri edi. Ana shunday murakkab sharoitda Abdullaxon II sahnaga chiqdi va yong'in ichida qolgandek ko'ringan xonlikni temir intizom, qat'iy harbiy strategiya va siyosiy farosat bilan birlashtira oldi. Manba va tarixiy hujjatlarga tayangan holda yozilgan ushbu maqola o'quvchiga XVI asr Markaziy Osiyoning geosiyosiy manzarasini chuqurroq anglash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *Abdullaxon II, Harbiy yurishlar, Shayboniylar sulolasi, Buxoro xonligi, Samarqand, Toshkent, Xorazm, Markazlashuv jarayoni.*

Abdullaxon II (1533-1598) yillarda, Shayboniylar sulolasining yirik vakili bo'lib, Buxoro xonligini 1583-1598-yillar davomida rasmiy xon sifatida boshqargan. Otasi Iskandar Sultonning vafotidan so'ng nufuzli sarkarda sifatida tanilib, zudlik bilan harbiy kuchlar yordamida siyosiy raqiblarni siqib chiqara boshladi. (1; 112-121). Davr sharoitida harbiy qudrat hokimiyatni mustahkamlashning asosiy garovi edi. Abdullaxon buni yaxshi anglab, ko'roq siyosiy irodadan ko'ra, harbiy kuch bilan Buxoro xonligini birlashtirish yo'lini tanladi. Samarqand – tarixan ilm-fan, madaniyat va siyosat markazi bo'lib kelgan shahar. Abdullaxon II uchun Samarqandni egallash xonlikni markazlashtirishda hal qiluvchi qadamlardan biri edi. 1557-yilda u ushbu shahar uchun kuchli harbiy yurish boshlaydi. Raqib bo'lgan boshqa shayboniy shaxzodalar va mahalliy hukmdorlar bilan bo'lgan to'qnashuvlarda Abdullaxon strategik ustunlikka ega chiqadi. (2; 45-78.). U katta lashkar to'plab, Samarqand atrofidagi qal'alarni birin-ketin egallaydi. Bu yurish nafaqat harbiy g'alaba, balki siyosiy ishonchni mustahkamlashda muhim bo'lgan. Toshkent – o'sha davrda nufuzli shaharlardan biri bo'lib u yerda ham mustaqil shayboniy shaxzodalar hokimiyat tepasida edi. (3; 89-102). Abdullaxon II ularni ham bo'ysundirish orqali xonlikni to'liq nazorat qilishni maqsad qiladi. U bir necha bosqichli yurishlar tashkil etib, kuchli qarshiliklarga qaramay, Toshkentni o'z ta'siriga oladi. Bu yurishlarda u nafaqat harbiy kuch, balki diplomatik vositalarni ham qo'llaydi. Raqib shaxzodalar bilan vaqtinchalik sulhlar, qondosh urug'lar bilan ittifoqlar orqali xavfli kuchlarni parchalab tashlaydi. Eng

muhim harbiy yurishlardan yana biri bu Xorazmga qilingan yurishlari bo'lgan. Xiva xonligi bilan bo'lgan bu ziddiyatlar ko'p yillik davomiylikka ega bo'lib, Xorazm mustaqil siyosat yuritishga urinayotgan edi. Abdullaxon Xorazmni egallash orqali Buxoro xonligining g'arbiy chegaralarini mustahkamlashni maqsad qilgan. (4; 276-288). Yurishlar natijasida Xorazm xonligi ma'lum muddat Buxoroga qaram bo'lib qoldi. Bu yurishlar xonlikning tashqi siyosiy mavqeini mustahkamladi. Abdullaxon II ning harbiy yurishlaridagi muvaffaqiyati faqat kuch bilan emas, balki uning strategik fikrlashi va ijtimoiy – psixologik yondashuvi bilan ham bog'liq edi. U dushmani zaiflashtirish uchun diplomatik bosim, iqtisodiy aloqada, ichki nizolarni avj oldirish kabi vositalarni qo'llagan. (5; 37-49). Shuningdek, u tajribali sarkardalar, ilg'or harbiy texnikalar va yaxshi tashkil etilgan qo'shinlar orqali yurishlarga tayyorlangan. Yurishlar nafaqat qisqa muddatli g'alabalar, balki uzoq muddatli siyosiy nazoratni ta'minlashi bilan ajralib turadi. Abdullaxon II harbiy yurishlari orqali Buxoro xonligini qudratli va markazlashgan davlatga aylantirdi. Uning yurishlari oddiy harbiy g'alabalardan iborat bo'lmay balki chuqur siyosiy natijalarga olib kelgan harbiy yurishlar edi. Abdullaxon II tarixda qat'iyatli, mohir strategy va davlat arbobi sifatida nom qoldirdi. Uning jang maydonlaridagi jasorati Buxoro xonligi tarixini "Olov ichida mustahkamlangan xonlik" ga aylantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov B.A (O'zbekiston tarixining qisqacha kursi)- T:1994.
2. Qayumov A. (Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi siyosiy hayoti)// T:1999.
3. Sadriddin Ayni-(Tarixi Buxoro)-T:1960.
4. Qayumov A., Saidov A., T:1992
5. Bobojonov Sh. (Shayboniylar davlati va uning harbiy-siyosiy faoliyati)//Jurnal.-2015.